

TERMINOLOGIYA VA UNING TARIXI

Razzaqova Oygul

O'zMU lingvistika (nemis tili) Mutaxassisligi 1-kurs Magistri

Ilmiy rahbar: F.f.n. To'raikulova Sayyora<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590882>

ANNOTATSIYA: Bu maqola orqali biz terminologiyaning ba'zi sohalari haqida qisqacha malumot berib o'tishga harakat qildik. Bilamizki, Til va jamiyat bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Tildagi so'z boylıklarining oshishida esa terminologiya sohasining o'rni beqiyosdir.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, emotsionallik, ekspansivlik, umumadabiy til, ilmiy terminlar, professional terminlar.

АННОТАЦИЯ: В этой статье мы попытались дать краткий обзор некоторых областей терминологии. Мы знаем, что язык и общество неразрывно связаны. Роль терминологии в росте словарного запаса языка неопределима.

Ключевые слова: термин, терминология, эмоциональность, экспансивность, общий язык, научные термины, профессиональные термины.

ANNOTATION: Through this article, we have tried to give a brief overview of some areas of terminology. We know that language and society are inextricably linked. The role of terminology in the growth of vocabulary in the language is invaluable.

Keywords: term, terminology, emotionality, expansiveness, general language, scientific terms, professional terms.

Terminologiya sohasiga qiziqish bir necha yillardan beri dunyo tilshunosligining diqqat markazidagi eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Butun jahon tilshunoslari qatorida o'zbek tilshunos olimlari ham terminologiya sohasiga katta qiziqish bildirishgan.

O'zbek terminologiyasining shakllanishini uch bosqichga ajratishimiz mumkin, bular qadimgi turkey til terminologiyasi (VI-X), eski turkey til terminologiyasi (XI-XIV), eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi (XV-XX), bundan tashqari istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi shakllangan va shu tarzda o'zbek terminologiya sohasi kundan-kunga shakllanib borgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya sohasining alohida o'rin va mavqeyiga egaligi bilan ajralib turishi hech birimizga sir emas. Terminologiyaning til

lug'at tarkibidagi roli sezirarli darajada katta bo'lib, so'z boyligining oshishiga katta hissa qo'shadi. Terminologiya sohasi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Terminologiya barcha tillardagi so'z boyligining katta qismini tashkil etadi. Shu sababli, Terminologiya fani tez suratda rivojlanishida davom etmoqda, chunki terminologiya tilda yangi so'zlar yasash imkonini ham beradi.

Termin tushunchasiga tilshunos olimlar tamonidan har xil tariflar berilgan. Mantiqshunoslarning takidlashicha, termin bu - aniq bir obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) jamlanmasini nazarda tutuvchi va uni tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin. Termin so'zi ga qisqacha tarif berib o'tadigan bo'lsak, *termin* so'zi (lotincha) "*terminus*" so'zidan olingan bo'lib, "chek", "chegara", "chegara toshi", "tugash" degan ma'nolarni bildiradi va Maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchalarni ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi termin hisoblanadi.

Terminologiya tushunchasi ham lotin tilidan olingan bo'lib -1) Ilm, fan, texnika, san'at, madaniyat va boshqa sohalarda qo'lanuvchi terminlar yig'indisi, majmuidir. M.: *tibbiy terminologiya, harbiy terminologiya* va boshqalar. 2) Tilshunoslikning muayyan til so'z boyligida qo'lanuvchi terminlar tizimini struktur, semantik, etimologik (genetik) va funksional jihatdan o'rganuvchi sohasi.

Terminlar ilm-fanni, kasb-hunarni ifodalashiga ko'ra ikki turga: ilmiy terminlar va professional terminlarga bo'linadi. Kasb-hunarga oid so'zlar professional terminlar hisoblanadi. Professional terminlarga: ovchilik, chorvachilik, kulolchilik, duradgorlik, binokorlik, poyabzaldo'zlik, naqqoshlik, kashtachilik terminlari kiradi. Fan, sa'nat, adabiyot va boshqa sohaga oid so'zlarga ilmiy terminlar deyiladi.

- Pediatriyaga oid terminlar: Abszess, Anämie, Anorexia nervosa, Antibiotikum, Antimyotikum, Appendizitis, Atopisches Ekzem, Balanitis.

- Adabiyotshunoslik terminlari: mubolag'a, jonlantirish, roman, hikoya, aruz, g'azal.

- Matematikaga oid terminlar: kub, kvadrat, minus, yechim, miqdor.

Fan va texnikada termin biror shaxs tamonidan sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z bo'lishi mumkin. Bunday so'zlarning qo'llanilishini tartibga solish maqsadida ilmiy tilshunos olimlar tamonidan terminlar aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Shu boisdan terminlarga muayyan talablar qo'yiladi, ushbu talablar uni umumtil, argon, jargon va hamda shevalardagi oddiy so'zlardan ajratib turadi.

“Termin” tushunchani umumiste'moldagi so'zdan farqlash uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

1. Termin – umumadabiy tilning faqat maxsus odamlargina ishlatadigan biror bir kichik guruh uchungina tanish bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Masalan: ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki so'z birikmalari tushuniladi;
2. Termin stilistik jihatdan neytraldir;
3. Termin bu aniq, nominative funksiyaga ega bo'lib, emotsionallik, ekspensivlik xususiyatiga mos emas;
4. Terminning ma'nosi tushunchaga tengdir;

Aslida termin va umumadabiy tildagi so'zlarni bir biridan farqlamoqchi bo'lsak, bu borada o'sha soha bilan shug'ullangan olimlarning fikrlariga, nazaryalariga e'tibor qaratishimiz kerak. Terminologiya sohasi yangi sohalardan hisoblanmasa ham termin tarifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko'pgina mulohazalar bildirilgan.

O.Vinokuming fikricha, termin - har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki u jamiyatga zarurligi, unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi.

O'zbek tilshunos olimi A.Hojiyev o'zining terminga bergan tarifida, Termin – bu fan texnika yoki boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan ishlatilish doirasi maxsus sohalar bilangina chegaralanadigan so'z yoki so'z birikmasi deb aytib o'tgan. Bundan tashqari A.Hojiyev *termin* so'zini *atama* yasamasi bilan almashtirishning noto'g'ri ekanligi, uning sabab va oqibatlarini xususida jiddiy mulohaza yuritgan edi (Hojiyev 1996;22-25).

V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi (Danilenko 1977;8). Har bir fan yoki sohaning taraqqiyot



ko'rsatkichi shu soha terminologiyasining «qat'iy ilmiy terminologiya»ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. Biror bir fanning qat'iy ilmiy terminalogiyasi - bu biror fan doirasidagina bo'ladigan boshqa fanlarda deyarli qo'lanilmaydigan terminlarni tushunamiz.

X.Xyuell terminga shunday tarif beradi, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz (Whewell 1967) deb takidlab o'tgan.

Xulosa o'rnida shuni takidlab o'tishim mumkinki, ilmiy adabiyotlarda takidlanishicha, hamda olimlarning fikrlarini inobatga olgan xolda shuni aytishimiz mumkinki termin -bu malum bir fan yoki ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan va asosan faqat o'sha soha kishilarigina tushunadigan maxsus so'zlar sifatida qaralad.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dadaboyev, Hamidulla. O'zbek Terminologiyasi: o'quv qo'llanma / Hamidulla Dadaboyev. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 136 b.
2. Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo'lida // "Ma'rifat" gazetasi, 2007 yil 21 may; Safarov SH. Pragmalingvistika. -T.: Fan, 2008;
3. Danilenko V.P. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. -М.: Наука, 1977. -S.157
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopiyasi. 2002